

ABDURAUF FITRAT VA SHAHSHMAQOM

Ulug'murod Amonov,
BuxDPI dotsenti, f.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining Ma'orif noziri sifatida Buxoroda birinchi Shashmaqom musiqa maktabini tashkil etishi hamda ruslarning mashhur kompozitori V. A. Uspenskiyni Buxoroga taklif qilib, o'z davrining mashhur maqom ustalaridan Shashmaqom – Buxoro shashmaqomini notaga tushirib, Moskvadan alohida nashr etishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati, Maorif noziri, maqom, Shashmaqom, maqom ustasi, V.A.Uspenskiy, kompozitor, nota.

Аннотация. В данной статье рассматривается организация Абдурауфом Фитратом первой школы шахмакомской музыки в Бухаре в качестве министра образования Бухарской Народной Советской Республики, а также приглашение в Бухару известного русского композитора В. А. Успенского, который записал «Шахмаком — Бухарский Шахмаком», из самых известных мастеров макома своего времени, и издал запись отдельно от Москвы.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, Бухарская Народная Советская Республика, министр образования, маком, шахмаком, мастер макома, В. А. Успенский, композитор, ноты.

Abstract. This article discusses Abdurauf Fitrat's organization of the first Shashmaqom music school in Bukhara as the Minister of Education of the Bukhara People's Soviet Republic and his invitation to Bukhara of the famous Russian composer V. A. Uspensky, who recorded Shashmaqom - Bukhara Shashmaqom, one of the famous maqom masters of his time, and published it separately from Moscow.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Bukhara People's Soviet Republic, Minister of Education, maqom, Shashmaqom, maqom master, V.A. Uspensky, composer, sheet music.

Kirish. Abdurauf Fitrat fenomenining naqadar buyukligini uning ilmiy-badiiy ijodi, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy sohadagi asarlari va faoliyati bilan tanishish jarayonida yanada chuqurroq anglaysan kishi. Fitrat qomusiy olim sifatida mumtoz adabiyot tadqiqotchisi, adabiyotshunosi; sharqshunosi, manbashunosi, turkologi; o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plashni tashabbuskori va birinchi folklorshunosi; siyosiy-ijtimoiy asarlari jamiyatshunosi sifatida bo'y ko'rsatadi. Biroq Abdurauf Fitratning xalqimiz oldidagi yana bir buyuk ishi borki, tilga olinmaydi. U musiqa folklori – Shashmaqomning notaga tushurib, bugungi kunga qadar insoniyatning bebaho ma'naviy boyligi sifatida tan olinishiga sababchilardan biridir.

Ilmiy izlanishimiz jarayonida Abdurauf Fitratning “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalining 1925-yil 2-soni (94-95-betlar)da “Shashmaqom” deb nomlangan kichik bir maqolasini topdik. Shu maqolani to'lig'icha e'tiboringizga havola etib, keyin tafsilotlarining tahliliga kirishsak.

Adabiyotlar tahlili. Abdurauf Fitratning Shashmaqom musiqiy merosini o'rganish va uni ilmiy asosda saqlab qolishdagi faoliyati turli tarixiy, musiqashunoslik va madaniyatshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarda yoritilgan. Olimlar Fitratni nafaqat davlat arbobi va jadid ma'rifatchisi, balki o'zbek folklori va mumtoz musiqasini ilk bor ilmiy yondashuv asosida o'rgangan tadqiqotchilardan biri sifatida baholaydilar.

O. Matyoqubov o'z ishlarida Fitratning V. A. Uspenskiy bilan hamkorlikda Shashmaqomni notaga tushirish va hujjatlashtirish jarayonini tashkil etishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. O. Safarov esa Shashmaqomning milliy madaniyatdagi o'rni va uning tarixiy ahamiyatini alohida qayd etib, bu merosni saqlash zarurligini asoslab beradi.

Shuningdek, A. S. Ulugmurod va boshqa zamonaviy tadqiqotchilar Fitratning folklorshunoslikdagi o'rni, uning musiqiy va etnografik jarayonlarga ilmiy yondashuvini tahlil qiladilar. Ushbu tadqiqotlar Fitratning o'zbek mumtoz musiqa merosini tizimlashtirish va saqlashdagi xizmatlarini tasdiqlaydi.

Shunga qaramasdan, Fitratning Shashmaqomni ilmiy hujjatlashtirish va nazariy tahlil qilishdagi hissasi bugungi kunda ham to'liq va keng miqyosda yetarlicha o'rganilmaganligi qayd etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning Shashmaqom musiqiy merosini saqlash va notaga tushirishdagi faoliyati tarixiy-madaniy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Tarixiylik tamoyili asosida Fitrat faoliyatining Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati davridagi ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog'liq jihatlari yoritildi. Tizimli tahlil orqali Shashmaqomni notaga tushirish jarayonidagi tashkilotchilik, ijrochilar va V. A. Uspenskiy ishtiroki o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganildi.

Qiyosiy metod yordamida Fitratning musiqa merosini saqlashga qo'shgan hissasi boshqa jadid ma'rifatchilari, xususan, Yunus Rajabiy faoliyati bilan solishtirildi. Shuningdek, manbashunoslik yondashuvi asosida Fitratning "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalidagi maqolasi hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqotda arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar kompleks tarzda qo'llanilib, muammoning obyektiv va ilmiy asoslangan talqini ishlab chiqildi.

"O'zbek madaniyatining, o'zbek hayotining haligacha tadqiq etilmagan jihatlaridan biri o'zbek muzikasidir.

Buyuk inqilobdan so'ngra o'zbek o'lkasining har tomonida muzikamizni tirguzmak eski muzika asarlarini yo'qolishidan qutqarmoq, saqlamoq uchun tebrabnishlar, harakatlar bo'lg'oni, maktablar ochilg'oni ma'lumdur.

Bu maktablarning birtasi Buxoroda ochilg'an "Sharq musiqiy maktabi"dir. Rus muzika olimlaridan V. A.Uspenskiy Buxoro Maorif nazoratining chaqirishi bilan Sharq musiqiy maktabida bir yildan ortiq ishladi, eski tarixiy muzika asarlarini "nuta"ga (notaga. A.U.) oldi. V. A.Uspenskiy tomonidan yozilg'an mana shul "Nuta"lar Buxoro hukumati hisobig'a, Maskvada, "Shash maqom" – "Шесть музыкальных поэм" ismi bilan olti daftarda bosilib chiqti, buning bir nusxasi idoramizga keldi. "Shash maqom" majmuasi yuz yigirma sakkiz betda yozilg'on yuz besh kuydan iboratdir. Noshiri Buxoro Maorif nazorati bosilishig'a nazorat qilg'an Fitrat ham N.N.Mironuf.

“Shash maqom” dog‘i olti asos “Maqom”: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq “Maqom”lari bo‘lib har bir “Maqom”; “Mushkilot” (Sodagina cholg‘i), “Nasr” (Qo‘shiq bilan cholg‘i), “Ufar” (*Tans* bilan cholg‘i)dan iborat uchga uchka bo‘lingan. Har bir bo‘lim necha kuylarga taqsim qilingan. Har bir kuyni yozg‘onda nutaning bosh tomonida shul kuyning usuli ham ko‘rsatilib borilg‘an.

Muzikamiz dunyosida shunday muhim bir asarni bor etgan, Buxoro hukumatiga ham “Uspenskiy”ga biz tashakkur qilamiz. O‘zbek muzikasiga oid teran ma‘lumotini bilganimiz uchun bu asarning asliga muvofiq chiqqanig‘a juda yaxshi ishong‘animizni bildiramiz. Ancha g‘ayrat ham kuch sarf etilib bor etilgan muhim asarning bizcha muhim kamchiligi bo‘lg‘on muzikamizning tarixini ilmiy asoslarini, usullarini, cholg‘ularimizning turlarini ko‘rsatib bir muqaddima yozilmag‘on. Hatto bu to‘g‘rilarda bir ikki xatg‘ina ma‘limot ham berilmagan. Mana bu hol; mazkur muhim asar uchun katta bir kamchilik, keng bir bo‘shliqdir. Biz bu bo‘shliqni to‘ldirmoq uchun jurnalning kelgusi sonida, “Shash maqom” majmuasini asos tutib, muzikamizga oid tafsilli bir maqola kirgizishga tirisharmiz.

Fitrat Fayzulla Xo‘jayevning da‘vati bilan 1921-yilning 9-martida Toshkentdan Buxoroga qaytgach, ona yurtida maorif va madaniyat ishlari bilan jiddiy shug‘ullana boshladi. Sadr Ziyoy, Musa Saidjonov kabi bir qator maslakdoshlari bilan hamkorlikda ilmiy jamiyat tuzib, turli fanlarga oid Nodir qo‘lyozmalarni to‘plashga kirishdi. 1922-1923-yillarda Buxoro xalq Sho‘rolar Jumhuriyati (BXShJ) ning maorif noziri vazifasida ishlagan kezlari bu faoliyati doirasini yana-da kengaytirdi. Endi u Buxoroda Sharq dorilfununini tashkil etish asoslarini tayyorlashga kirishdi, ayni chog‘da mamlakat miqyosida umumta‘limni yo‘lga qo‘yish va bu jarayonga o‘quvchilarni ommaviy safarbar etish tadbirlarini amalga oshira bordi. Bu sohada, xususan, uning musiqiy ta‘limni yo‘lga qo‘yish va umuman musiqiy ishlarni jonlantirish sohasidagi tashabbuskorligi ayricha ahamiyatga molik.

Fitrat musiqiy ta‘limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yishni ko‘zlab, Buxoro shahrining Ravg‘angaron guzarida BXShJ hukumati tomonidan o‘ziga in‘om etilgan hovli (hozir xususiylashtirilgan 8-uy)da ixtisoslashgan musiqa maktabi tashkil etdi. Bu maktab “Sharq musiqa maktabi” atalib, yevropacha usuldagi musiqa maktabidan farq qilar, unda ta‘lim jarayoni sharqona ustoz-u shogird saboqlari asosida qurilgan edi. Unga BXShJ hukumatining 1921-yil10-avgustdagi farmoyishi bilan Abdurauf Fitrat direktor, Domla Halim Ibodov ilmiy mudir etib tayinlangan edi. (Qarang: GTsA, uzr, f.56, op.1, D.18, 33-varaq). Maktabda musiqa ta‘limini amalga oshirishda o‘sha zamonning mashhur maqomxonlari va maqomdonlari ota Jalol Nosir o‘g‘li, ota G‘iyos Abdug‘ani o‘g‘li, Levicha (Levi Boboxonov), Qori Najm, Abdusamad Begijon, shuningdek, Abdurahmon Umarov va Ma‘rufjon Toshpo‘latov kabi ustoz san‘atkorlar jalb etiladi. Keyinchalik shu ustozlardan saboq olgan Sharq musiqa maktabi talabalari safidan mohir maqomxonlar

Shohnazar Sohibov, Fazliddin Shahobov, Borux Zirkiev va zabardast bastakorlar Muxtor Ashrafiy, Mutavakil Burhonovlar etishib chiqishdi.

Abdurauf Fitrat Sharq musiqa maktabida ta'limni tashkil etish jarayonida yana bir haqiqatni anglab yetdi: asrlar davomida xalq dahosi tomonidan yaratilgan Buxoro shashmaqomini shu ustozlardan yozib olish va abadiylikni ta'minlashni kechiktirmaslik zaruriyatini tushundi. Shu xususda maslakdoshi, o'sha vaqtdagi BXShJ hukumati raisi Fayzulla Xo'jaevga murojaat qiladi. Nihoyat ular o'zaro kelishib, o'sha davrning yetuk musiqashunosi, taniqli etnograf Viktor Aleksandrovich Uspenskiyga murojaat qilishga qaror qildilar. Bu haqda maqomshunos O.Matyoqubov shunday yozadi: "Bunda Fitratning uzoq maqsadlarni ko'zlovchi dono rahbar ekanligi yana bir karra namoyon bo'ladi. Shashmaqomni o'rganish va yosh avlodga uqtirishdan asosiy maqsad o'zbek musiqasi istiqbolini eski mumtoz an'analarga bevosita bog'lash hamda yangi musiqiy tafakkurni barpo etishda milliylikni ustivor yo'nalish etib belgilash, ota-bobolar merosiga nisbatan hurmat va e'tiborni o'z joyiga qo'yish edi".[2.23-24]

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, garchi V.A.Uspenskiy g'arb musiqiy an'analari ruhida saboq ko'rib shakllangan esa-da, bu ishga jiddiyat va g'ayrat bilan kirishdi. Bunda Fitrat Shashmaqom kuylarini notaga yozib olish ishlarini tubandagicha tashkil etishni yo'lga qo'ydi. Sharq musiqa maktabining muallimlari ota Jalol boshchiligida navbatma-navbat Shashmaqom sho'balarga oid u yoki bu kuyni doira va tanbur jo'rligida ijro etishgan. V.Uspenskiy uni notaga ko'chirgan, so'ngra, albatta, shu yozib olingan kuyni fortepianoda chalib bergan. Ota Jalol boshchiligidagi nufuzli hay'at nazoratida ma'qullanganidan keyingina uni nashr etishga tavsiya etishgan.

Shashmaqomning notaga yozib olinishi jarayonini tezlashtirish va jozibali hamda mukammal yozib olinishini ko'zlab, Fitrat o'z uyida haftada bir marta ota Jalol boshchiligidagi ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Levicha, Abdurahmon Tanburiy (Umarov), Ma'rufjon Toshpo'latov va boshqalardan iborat maqomxonlar ishtirokida musiqa bazmi uyushtirib turgan. Bazmda ijrochilar yozib olingan asarlar sifatini muhokama qilishgan, sozandalar xushhol kayfiyatda u yoki bu kuyni qayta-qayta ijro etishgan, bunda ijro aniqligi, tiniqligi va jozibasiga ahamiyat berishganki, bu V.Uspenskiyga shashmaqomga xos sir-u sinoatni chuqurroq va teranroq anglashga, Fitratga esa uning nazariy asoslarini idrok etish va tahlil qila borishga imkoniyat yaratgan. Keyinchalik Fitratning dushmanlari uchun bu bazmlar malomat toshlariga aylangan esa-da, har qalay xuddi shu bazmlarda bevosita ijro jarayonida Buxoro shashmaqomini ilk bor nisbatan to'la hajmda yozib olish va notaga ko'chirish ta'minlangan ediki, bu ulug'mutafakkirning o'zbek milliy musiqasini avlodlarga yetkazishda nechog'li fidoyilik ko'rsatganligini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu haqda Fitratning o'sha vaqtdagi shaxsiy kotibi bo'lgan Sharq mumtoz adabiyotining bilimdoni, buxoroliklar orasida Domla Izomiy nomi bilan tanilgan G'ulomjon Izomov xotiralaridagi tubandagi baho e'tiborlidir: "Xalqimizning bebaho

boyli bo'lgan shashmaqomni keyingi avlodga etkazish maqsadida Fayzulla Xo'jaev va Abdurauf Fitrat o'sha davrda O'rta Osiyo xalqlari musiqa merosini o'rganish uchun Turkiston o'lkasiga kelgan moskvalik mashhur musiqa etnografi V.A.Uspenskiyni Buxoroga taklif etishadi. Uni keksa maqom ustalari bobo Jalol va bobo G'iyoslar bilan tanishtirib, ular ijrosida Buxoro shashmaqomining to'la nusxasini notaga yozib olishni tashkil etishadi. V.A.Uspenskiy bu mashaqqatli vazifani 1923-yilda boshlab, 1925-yilda A.Fitrat va N.Mironovlar tahriri ostida Moskvada nashr etgiradi. F.Xo'jaev Uspenskiyning xizmat haqini sof Buxoro oltini bilan to'ladi".

Buxoroning "sof oltini" bahosida bunyod etilgan bu kitob "Shashmaqom" ("Olti poema") unvoni bilan chop etilgan bo'lib, olti maqomning har biri o'ziga xos ichki guruhlanish tartibida tubandagicha berilgan: V.A.Uspenskiy "Buxoro Shashmaqomi"ga taalluqli 105 ta kuyni notaga ko'chirishga muvaffaq bo'lgan. Bu g'oyat katta muvaffaqiyat edi. Shu sababli notaga olish ishi nihoyasiga etgach, BXShJ maorif vazorati tomonidan V.A.Uspenskiyga quyidagi mazmunda guvohnoma berilgan:

"...V.Uspenskiyga qadimiy maqomlarni notaga ko'chirish topshirilgan edi. U bu ishni juda muvaffaqiyatli bajardi. Uning tomonidan yozib olingan "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh" va "Iroq" maqomlari "Narkompros" Kengashining maxsus komissiyasi tomonidan tekshirilib ma'qullandi va muallifga katta minnatdorchilik bildirildi".[3.11]

Shubhasiz, A.Fitrat va F.Xo'jaevlar tashabbusi hamda V.Uspenskiy g'ayrati bilan amalga oshirilgan bu xayrli nashr Buxoro shashmaqomini notaga ko'chirishdagi dastlabki qadam bo'lib, milliy musiqa madaniyatimiz tarixida muhim hodisa edi.

Abdurauf Fitrat bu bilan cheklanmasdan "Sharq klassik musiqa tarixi" deb nomlangan yirik tadqiqotini risola shaklida nashr etdi. Bu asarda olim sharq milliy musiqa asboblari, ularning yaratilish tarixi; maqom maktablari, maqomning genezisi, tarqalish geografiyasini tahlil qilib bergan.

Bugun mamlakatimizda buyuk ma'naviy merosimiz bo'lgan Shashmaqom Xalqaro miqyosda an'anaviy tarzda o'tkazilishi kishini quvontiradi. Afsuski, Yunus Rajabiyning milliy maqomimiz doirasidagi faoliyati qayd qilingani holda Abdurauf Fitratlarning bu boradagi faoliyati umume'tirof etilmayapti.

Xulosa. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning Shashmaqom musiqiy merosini saqlash, rivojlantirish va ilmiy jihatdan hujjatlashtirishdagi faoliyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Fitrat Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati davrida nafaqat maorif tizimini isloh qilish, balki milliy musiqiy merosni asrash va uni ilmiy asosda o'rganish bo'yicha ham muhim tashabbuslarni amalga oshirgan.

Xususan, uning V. A. Uspenskiy bilan hamkorlikda Shashmaqomni notaga tushirish jarayonini tashkil etishi o'zbek mumtoz musiqa tarixida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan. Bu jarayon milliy musiqiy merosni yo'qolib ketishdan saqlab qolish va uni ilmiy muomalaga kiritishda katta ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, Fitrat tomonidan tashkil etilgan “Sharq musiqa maktabi” Shashmaqom ijrochilik an’analarini tizimli o‘qitish va yangi avlod musiqachilarini yetishtirishda muhim markaz bo‘lgan. Bu esa milliy musiqiy madaniyatning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf Fitrat. “Maorif va o‘qitg‘uchi”. 1925-y.2-son. 94-95-betlar.
2. Матёкубов О. «Мақомот», Тошкент, «Муסיқа» нашриёти, 2004, 23-24-б.
3. Safarov O. Shashmaqom vatani ohanglari. 2008. Toshkent. 11-b.
4. Ulugmurod, A. S. Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673). *Online ISSN*, 2249-7137.
5. Amonov, U. S. (2022). Turkiston o‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 412-414.
6. Sulonovich, A. U. (2016). Folklore in the works of Abdurauf Fitrat. *International scientific journal «Theoretical & Applied Science», USA*, 12-15.
7. Amonov, U. (2024). SADRIDDIN AINI'S CRITICAL VIEWS (BASED ON THE TAZKIRAH “SAMPLE TAJIK LITERATURE”). *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 200-207.
8. Sulonovich, A. U. M., & Ramazonovna, S. S. (2024). The methodological significance of Sadridin Ayniy’s autobiographical tale “Eski maktab” in teaching children’s literature. *Materiallari*, 579.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934